

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"  
Rektor  
Sh. Sirojiddinov

2018 yil

08



"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil "7" 12

Ro'yxatga olindi: № *BD-5111200-4.03*

2018 yil "21" 11

O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI VA ADABIY JARAYON

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "7" 12 dagi "1000"-sonli buyrug'ining 4 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2018 yil "21" 11 dagi 5 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

I.Yoqubov – ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy jarayon" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi .

#### Taqrizchilar:

Qahramonov Q. – O'z R.FA Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, va folklori instituti kichik ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

Ulug'ov A. – ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy jarayon" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi .

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "23" 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi).

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"O'zbek adabiy tanqidi tarixi" fanida munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasi tadqiq qilish orqali talabada tanqidiy qarash shakllantiriladi. "Oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish"<sup>1</sup> borasida Yurtboshimizning aytgan fikrlari adabiy tanqid tarixini o'qitishda ham muhim sanaladi.

"O'zbek adabiy tanqidi tarixi" fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, munaqqidlar faoliyati ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risida ma'lumot beradi.

Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiy tanqidning tarkibiy qismlari, janrlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, matn mohiyatini aniq va izchil talqin qilish, jahon adabiy tanqidchilikdagi ichki imkoniyatni ma'lum adabiy tur hamda janrlar misolida asoslab o'rganish, umuman mutaxassisning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. Shu ma'noda quyidagi vazifalar muhimdir:

– adabiy tanqid tarixi bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish;

– adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning qiyosiy jihatlari haqida ko'nikmalarni egallashi;

– adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan tanqid orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish, o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini aniqlash, adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish haqidagi farmon. Xalq so'zi, 14 may.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### 1-modul. "O'zbek adabiy tanqidchiligi" bo'limi

##### O'zbek adabiy tanqidchiligi fan sifatida. Adabiy tanqidchilik tarixi fanini o'rganishning metodologik masalalari

O'zbek adabiy tanqidchiligi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sifatida. Tanqid ("naqd", "naqada") saralamoq, baholamoq, tekshirmoq ekani. Ya'ni yaxshini yomondan yoki aslning soxtadan ajratib, uning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, badiiy asarni baholash, izohlash hamda hukm qilmoq ma'nolarini anglatishi. XX asr adabiy tanqidchiligi va har bir davrning adabiy jarayoni fan sifatida shakllanishi hamda taraqqiyoti. Adabiy tanqidning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tanqid tarixini o'rganishning ikki xil prinsipi: 1. Adabiyot tarixi va har bir davr adabiy jarayoni bilan aloqadorlikda o'rganish. 2. O'z spetsifik xususiyatlari va taraqqiyot tadriji asosida o'rganish. Tanqidning vazifasi: voqelik, kishilar hayoti, ruhiyati ijodkor tomonidan nechog'li badiiy-mukammal, san'atkorona, haqqoniy, yangi tarzda aks ettirilgani, yutuq va kamchiliklarning tub sabablarini ko'rsatishdan iborat ekani. Adabiy tanqidning metodologik asoslari: falsafiy, ilmiy-nazariy va ijtimoiy-mafkuraviy asoslari. Adabiy tahlilning sotsiologik, struktural, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, germeneytik, gipotetik va ruhiy tahlil shakllari. Poetik matnni tahlil va talqin qilish usullari. Adabiy oqim va maktablar. Falsafiy, ijtimoiy, mafkuraviy va badiiy-estetik qonuniyatlar. XX asr adabiyotini qayta baholash muammolari. Yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalari munosabat masalasi. Adabiy tanqidning adabiy-tarixiy jarayondagi o'rni. Badiiy asarda inson konsepsiyasi. "Tushunish" va "tushuntirish" psixologiyasi. Tanqidchilikda hozirgi adabiy jarayonning taraqqiyot tamoyillari. Ijodkor badiiy-estetik tafakkuri haqidagi tushunchalarini kengaytirish muammolari. Metodologik pliyuralizmga o'tishning ahamiyati.

##### Adabiy tanqidchilik tarixini davrlashtirish. Mumtoz davr tanqidchiligidagi yetakchi tamoyillar

Platon, Aristotel, Aristarx – antik davr tanqidchilari sifatida. Adabiy asar haqidagi fikrning og'zaki va yozma shakllari. Mumtoz davr tanqidchiligi tarixidagi o'ziga xoslik. O'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Sharq mumtoz poetikasida adabiy tanqidning ilmi qofiya, ilmi aruz, ilmi bade' tarkibida rivojlanishi. Qays Roziyning "Al-Mo'jam", Atoullah Husayniyning "Badoyi' us-sanoye", Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul afkor fi sanoyi' ul-ash'or", Navoiyning "Mezon ul-avzon", Taroziyning "Funun ul-balog'a" singari asarlaridagi adabiy tanqidiy qarashlar ahamiyati. XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligining fan sifatida paydo bo'lishi va shakllanish tamoyillari (1900-1925) yillar. O'zbek adabiy tanqidchiligi mafkuraviylashtirilish va realizm uchun kurash jarayonida (1927-1990) yillar: a) 30-yillar adabiy tanqidi va adabiy

jarayon; b) ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda adabiy tanqidi v) XX asrning 60-80- yillari tanqidchiligi o'ziga xos xususiyatlari; tanqid va adabiy jarayon; g) Istiqlol davri tanqididagi etakchi tamoyillari (1990 va undan keyingi davr). Tanqidchilikning adabiy jarayonning taraqqiyot tamoyillarini ochishdagi o'rni.

Antik zamonning Platon, Aristotel kabi vakillari faoliyatlarida adabiy tanqidning paydo bo'lishi. Aristotel "Poetikasi" ga yozilgan sharhlar. (Forobiy va Ibn Sino) Qays «Ilmi naqada», «Ilmi g'ariba» haqida ma'lumot. A.Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida klassik tanqid namunasi sifatida.

Roziy, Navoiy, Atoullah Husayn, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Taroziy, Bobur kabi ijodkorlar asarlaridagi badiiy matnning yutuq va nuqsonlari haqidagi fikrlarni o'rganish.

##### XX asr tanqidchiligining taraqqiyot tamoyillari

Adabiy tanqid va jadid vaqtlilik matbuoti. Adabiy tanqid va ijod jarayoni. O'zbek adabiy tanqidchiligi tamoyillarining sobiq ittifoq adabiy jarayonida kechgan hodisalarga hamohangligi. 20-30-yillar tanqidchiligidagi vulgar sotsiologik qarashlar. Cho'lpon she'riyati va Qodiriyning "O'tgan kunlar" romaniga mafkuraviy yondashuvlar. Davr tanqidchiligining ayrim nuqsonlari. A.Qodiriyning "Obid ketmon", "O'tkan kunlar", A.Qahhorning "Sarob" asarlari tadqiqi va talqini asosida tanqidning jiddiy sinovdan o'tishi. Ilk adabiy tanqidiy janrlar. Adabiy tanqidda shakl va mazmun, uslub va individuallik, xarakter va sharoit singari omillar dialektik birligi talqini. Tanqid va bolalar adabiyoti. V.Mahmud, M.Solihov, Fitrat, O.Hoshim, S.Husayn singari professional munaqqidlar o'zbek madaniyati va adabiyotshunoslik ilmini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq faoliyati. Tanqidning adabiy-tanqidiy asarlarini baholashda madaniy meros va adabiy jarayonga munosabati. 30-yillar adabiy tanqidiga xos etakchi tamoyillar.

##### Turg'unlik davri o'zbek adabiy tanqidchiligi

Adabiyotshunoslik fani rivoji jadalashuviga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy hayot oqimi adabiy tanqid mazmun mohiyati hamda badiiy adabiyotning mavzu doirasini belgilab berishi. Davr adabiyotining umumiy ruhi va qamrov miqyoslari. Mavzu ko'lami ortishi va janrlar tarkibi yangilanishi. Obrazlar tizimiga xos o'zgarish va yangilanishlar. Sho'rolar mafkurasining "Zvezda", "Leningrad" jurnallariga munosabati (1946) va buning zararli oqibatlari. Ushbu jarayonga adabiy tanqidning ta'siri. M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi, Oybekning "Navoiy" romani, "Alpomish" dostoni atrofida bo'lib o'tgan keng muhokamalar jarayonida milliy adabiy tanqidiy tafakkur rivoji.

Qatag'onlik siyosatining qayta avj olishi. 50-yillar adabiy jarayonida "konfliktsizlik" illatlarining avj olishi. Adabiy tanqidga shaxsga sig'inish illatlarining zararli ta'siri. Tadqiqotlarning davr ruhiga moslashuvi. Zo'rma-zo'raki

“fosh” etish va biryozlamalik. Asossiz fikrlarni ilgari surish tamoyili. Badiiy asarlar pafosi, g’oyaviy mazmuni, hozirjavobligi nuqtayi nazaridan baholanishi. Adabiy taqrizning faollashuvi va muammoli maqola hamda umumlashtiruvchi tadqiqotlarning nisbatan kamayishi.

“Qayta qurish va oshkoralik” davrida mumtoz merosimizni atroflicha o’rganish, tarixiy shaxslar va tarixiy mavzu poetik tadqiqiga e’tibor ortishi. Adabiy biografik ocherk, umumlashtiruvchi (obzor) maqola va tadqiqotlarning kelishi. Adabiy tanqidchilik professional malakasini oshirish borasida izlanishlar yo’liga chiquvi. H.Abdusamatov, L.Qayumov singari munaqqidlar faoliyatida zamonaviylik, g’oyaviylik, badiiylik, badiiy konflikt, qahramon, tipiklik muammolari.

### **O’zbek adabiy tanqidchiligining etuk namoyandalari**

H.Yoqubov, I.Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo’shjonov, N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, A.Rasulov hayoti, ijodi haqida ma’lumot berish. Ularning adabiy tanqidchilikka qo’shgan hissalarini baholash.

- a) adabiy tanqidchilikda tarixiy funksional yondashuvning kuchayishi;
- b) sho’ro davri adabiyotini qayta baholash va badiiy asarga yaxlit butunlik sifatida yondashish tamoyili;
- v) badiiy matnning botiniy ma’nolarini kashf etishga e’tiborning ortishi
- g) jahon adabiyoti ilg’or tajribalarini milliy asosda ijodiy o’zlashtirish va b tamoyillar haqida bilim berish.

### **Adabiy tanqidda mahorat masalasi**

Oybek, I.Sulton, H.Yoqubov, M.Qo’shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Xudoyberganov, N. Karimov va I.G’afurov adabiyotshunos va munaqqid sifatida. Adabiyot va san’at olamiga yangi kuchlarning kelib qo’shilishi badiiy adabiyot ichki qonuniyatlarini to’g’ri idrok etish imkonlarini bergani. Realizm uchun kurash. Adabiy tanqidchilikning g’oyaviy-siyosiy yondashuv, ofarinbozlik, sxematizm, sotsiologik tahlil va mavzu dolzarbligiga e’tibor berishdan qutula boshlashi. Badiiy mahoratning yuksalishi va yangi tipdagi kitobxon shakllanishi. Tanqidchi uslubi va mahorati ortishining adabiy jarayonga ta’siri.

Adabiy tanqid tabiatida sifat o’zgarishlari: Badiiy asarga ijodkor qalb prizmasi orqali kirib borish. Estetik tahlilda badiiyat, til, san’atkor mahoratiga e’tiborning ortishi. Muammoli maqola hamda fundamental xarakterdagi tadqiqotlar yuzaga kelishi. Adabiy aloqalar va adabiy ta’sir masalalari. Folklor va adabiy jarayon munosabatlari.

Nasr, she’riyat, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, publitsistika, tarjimashunoslik, tanqidchilik tarixi singari qator sohalarining keng rivojlanishi. Konflikt, kompozitsiya, badiiy asar tili, uslub, ijodiy metod singari muammolar atrofida bo’lib o’tgan qizg’in bahslar. Tarixiy-biografik ocherk, adabiy portret singari janrlar rivoji. Ilmiy-fantastik asarlar tanqidchiligining yuzaga kelishi. Adabiy tanqid asarlarning xorijiy tillarda nashr etilishi. O’zbek adabiyotining

jahon adabiyoti aspektida o’rganilishi. Tanqidda munaqqidning o’rni. S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, N.Shukurov, S.Aliyev, P.Shermuhammedov, B.Sarimsoqov, A.Kattabekov kabi munaqqidlarning adabiy tanqidiy faoliyatlari.

### **Adabiy-badiiy tafakkurning yangilanish omillari**

Milliy g’oya va umumbashariy mezonlar nuqtayi nazaridan yoritilgan muammolar: mumtoz adabiyot va uning yorqin siymolari ijodini o’rganish; sho’ro bosqichi adabiyoti namunalarini qayta baholash; qatag’on etilgan adiblarga munosabat. Adabiy-badiiy tafakkurdagi yangilanish omillarining mohiyati va sabablarini o’rganish. Hozirgi adabiy jarayondagi evrilishlar.

### **Mustaqillik davri tanqidchiligidagi evrilishlar**

Adabiy tanqidning mafkura tushovlaridan qutulib, erkin ijod yo’liga o’tishi. Adabiy jarayon va adabiy tanqid. Tanqidchilikda ijodiy metodga bo’lgan munosabat yangilanishi va adabiy-estetik konsepsiya turfalashuvi. Ijod erkinligi. Estetik tahlil – adabiy tanqidchilikning asosiy mezon. O’zbek adabiy tanqidchiligi namoyandalari (M.Qo’shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Yo’ldoshev, I.Haqqul) adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik faoliyati. Davr adabiy-tanqidiy tafakkurida o’z o’rniga ega bo’lgan olimlarning faoliyati haqida umumiy ma’lumot.

### **Adabiy tanqid janrlari**

Adabiy tanqid janrlari haqida ma’lumot. Ixcham va hozirjavob janrlar, etakchi xususiyatini tarixiy biografik yondashuv belgilovchi janrlar, adabiy muloqotga asoslangan janrlar.

1. Ixcham va hozirjavob janrlar: (taqriz, obzor, muammoli maqola)
2. Yetakchi xususiyatini tarixiy biografik yondashuv belgilovchi janrlar: (tanqidiy biografik ocherk, adabiy portret, esse, monografiya)
3. Adabiy muloqotga asoslangan janrlar: (adabiy tanqidiy maktub, adabiy tanqidiy suhbat)

### **2-modul. “Hozirgi adabiy jarayon” bo’limi**

#### **Adabiy jarayonda ro’y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar**

Talabalarni hozirgi adabiy jarayonda ro’y berayotgan yangiliklar – yangi tamoyillar keyingi davrda yaratilgan asarlarda hayot haqiqati, mustaqillik mohiyati qay darajada o’z ifodasini topganligi, davr tug’dirgan muammolar badiiy asarlarda qanchalik o’z aksiga ega bo’lganligi, ijod jarayonida yuzaga kelgan adabiy yo’nalishlar, uslubiy tendentsiyalar, shuningdek, insoniyatning umumbashariy

hadriyatlarini, butun dunyo tafakkuri bilan yo`hriilgan jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini ila tanishtirish, eng muhimi ularda badiiy asarga qanday yondoshish, tahlil qilish ko`nikmasini yuzaga keltirish maqsad qilindi.

Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo`nalishlar. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o`zaro aloqasi va bir-birini boyitishi. Badiiy adabiyot janrlarining o`ziga xos xususiyatlari. Badiiylik va zamonaviylik prinsipi.

#### **Bugungi kun she'riyati tamoyillari. Zamonaviy dostonlarda epiklik**

Mustaqillik yo`liga chiqib olgan xalqni uyg`otuvchi, unda milliy g`urur va e`tiqod, istiqloq va istiqloqla ishonch tuyg`ularini ulug`lovchi she`rlar bugungi adabiy jarayondagi etakchi tamoyil ekanligi, mazkur tamoyildagi she`rlarda yangi tarixiy voqelikni his qilishga undovchi, ruhan yangilanish va poklanishga chorlovchi g`oyalar.

A.Oripovning «Ko`ztumor», Usmon Azimovning «Uyg`onish azobi» she'riy to`plamlari, Erkin Vohidovning «Vatan umidi» she'ri, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Halima Xudoyberdieva, Oydin Xojieva, Farida Afro`z; Iqbol Mirzo, Mahmud Toirov, Halima Axmedova, Zebo Mirzaeva, Xosiyat Bobomurodova, Sirojiddin Sayyid, Abduvali Qutbiddin, Guljamol Asqarova she`rlarining tahlili.

Epik elementlar aralashgan dostonlar. A.Oripovning «Hakim va ajal», E.Vohidovning «Ruhlar isyoni», M.Yusufning «Qora quyosh», U.Azimning «Xalil Sulton» dostonlari tahlili.

#### **Hozirgi zamon hikoyalarning o`ziga xosligi va taraqqiyot tamoyillari**

Hikoyaning janr tabiatida tavsifiy-rivoyaviy tipdan novellistik tip sari siljish kuzatilishi. Janrda g`oyaviy-tematik ko`lamning kengayishi, gumanistik mazmun va psixologik tahlilning kuchayishi, ijtimoiy-axloqiy, ma`naviy, oilaviy konfliktlarning keskinlashishi, milliy kolorit va individual maneralarning ortishi.

#### **Hozirgi o`zbek qissachiligida mavzu va muammo**

Zamonaviy o`zbek qissachiligida O`.Hoshimov, Murod Muhammad Do`st, E.A`zam, X.Sulton, I.Sulton izlanishlari samaralari. Jamiyat tizimining o`zgarishi hayotda tub iqtisodiy burilish yasashi, qissalarda bir qator ijtimoiy muammolarning o`z ifodasini topishi. Qissalarda milliy qadriyatlar va ma`naviyatga e`tiborning kuchayishi. Zamonaviy qissachilik muammolarining tanqidchilikdagi tahlil va talqinlari.

#### **Roman taraqqiyotini belgilovchi tamoyillar. Roman va adabiy tanqid munosabatlari**

Roman janri taraqqiyotidagi asosiy tendentsiyalar. Davr o`zgarishi bilan roman mavzusining o`zgarishi. Shakl va mazmun mutanosibli. Hayotning turli mavzularida ijod qilishning boshlanishi. Dialogik muloqotga asoslangan romanlar.

Mustaqillik davri romanlariga xos belgi-sifatlarining adabiy tanqidchilikdagi tahlil va talqinlari. N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rahimov, Y.Solijonov, Z.Pardaeva, Sh.Doniyorova, I.Yoqubov adabiy- tanqidiy maqola va risolalarini o`rganish.

#### **Yangi bosqichdagi o`zbek dramaturgiyasida janrlar modifikatsiyasi**

Dramada janrlar modifikatsiyasi: (musiqali drama, musiqali komediya, drama – monolog, miniatyura). Dramaturgiyada badiiy mahorat va zamonasozlik. Zamon bilan hamnafas bo`lishda, xalqimiz ma`naviy talablarni qondirishda dramaturgiyaning o`rni.

#### **Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti**

Ozod Sharafiddinov dunyo adiblari asarlari tarjimoni sifatida. Mutarjimning «Jahon adiblari adabiyot haqida»( –T.: Ma`naviyat, 2010) kitobi misolida. Talabalarni hozirgi adabiy jarayonda ro`y berayotgan yangiliklar – yangi tamoyillar keyingi davrda yaratilgan asarlarda hayot haqiqati, mustaqillik mohiyati qay darajada o`z ifodasini topganligi, davr tug`dirgan muammolar badiiy asarlarda qanchalik o`z aksiga ega bo`lganligi, ijod jarayonida yuzaga kelgan adabiy yo`nalishlar, uslubiy tendentsiyalar, shuningdek, insoniyatning umumbashariy qadriyatlarini, butun dunyo tafakkuri bilan yo`g`rilgan jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini bilan tanishtirish, eng muhimi, ularda badiiy asarga qanday yondoshish, tahlil qilish ko`nikmasini yuzaga keltirish maqsad qilindi.

#### **Globallashuv davri o`zbek adabiyoti. Modern adabiyot mohiyati: falsafiy-estetik asoslari**

Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy asarlar. Yangilanishlar jarayonida inson mohiyati masalasi. Ommaviy madaniyatning kitobxon ma`naviyatiga ta`siri muammosi. Badiiy adabiyotda janrlar sintetizmi masalasi. San`atlararo aloqadorlik.

Hozirgi o`zbek adabiyotidagi realistik tasvir va modern yo`nalishi aro munosabatlar: bahslar, kontseptsiyalar. Modern va postmodern adabiyoti asarlariga taqlidning yuzaga kelishi.

#### IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarda talabalar adabiyot haqidagi bilim va ko'nikmalarini, muayyan malakalarni badiiy asarlar tahlili orqali mustahkamlab boradilar. Seminar mashg'ulotlar mavzularining rejasi va adabiyotlar ro'yxati talabalarga taqdim qilinadi. Rejada ko'rsatilgan masalalarni darslik yoki o'quv qo'llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o'rganish tavsiya qilinadi.

Seminar mashg'ulotida tavsiya etilgan ilmiy asarlar talqin, tahlil qilinadi:

1. Adabiy tanqid va adabiy jarayon munosabati.
2. Adabiy tanqidda badiiy asarga estetik yondashuv.
3. Adabiy tanqid va hermenevtik tafakkur.
4. Biografik, tarixiy-funksional yondashuv.
5. Vadud Mahmudning munaqqidlik faoliyati.
6. XX asarning 30-yillari tanqidchilari ijodi.
7. Cho'lponning "Adabiyot nadir" asari tahlili.
8. Adabiy tanqidda bahs janri.
9. Istiqlol davri tanqidchiligining asosiy tamoyillari.
10. Adabiy jarayonda ro'y berayotgan yangiliklar va yangi tamoyillar
11. Badiiy ijod jarayonida yuzaga kelgan adabiy yo'nalishlar va uslubiy tendentsiyalar.
12. Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi
13. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti
14. Zamonaviy adabiyotda adabiy tur va janrlar
15. Zamonaviy o'zbek she'riyati
16. Bugungi o'zbek romanchiligi taraqqiyoti
17. Yangi bosqichdagi o'zbek dramaturgiyasi

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- Tarqatma materialar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendentsiyalarini va estetik tamoyillarni o'rganish.
- Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- Masofaviy (distsion) ta'lim.

#### Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Bugungi adabiy jarayonda dostonchilik muammolari.
2. Istiqlol davri adabiyotining taraqqiyot tendentsiyalari.

3. Istiqlol davri o'zbek she'riyati sohasidagi izlanishlar.
4. Hozirgi adabiy tanqidchilik tamoyillari.
5. O'zbek tarixiy romanchiligining yuzaga kelishi va taraqqiy etish tendentsiyalari.
6. Hozirgi o'zbek qissachiligining janr va uslub xususiyatlari.
7. Bugungi kun o'zbek dramaturgiyasiga xos etakchi xususiyatlar.
8. Bugungi kun o'zbek publitsistikasida davr muammolarining yoritilishi.
9. Dostonchilik muamolarini o'rganish.
10. Istiqlol davri adabiyotining taraqqiyot tendentsiyalarini o'rganish
10. "Tafakkur" jurnalidagi taqrizlar tahlili.
11. "Sharq Yulduzi" jurnalida e'lon qilingan ilmiy maqolalar tahlili.
12. "Yoshlik" jurnali dagi yangi asarlarga munosabat bildirish.
13. "Jahon adabiyoti" jurnalida o'zbek va jahon adabiyotiga oid maqola, taqrizlar sharhi.
14. "Kitob dunyosi" gazetasidagi tanqidiy maqolalar.
15. Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" to'plamidagi "Adabiyot yashasamillat yashar", "Istibdod qurboni yoxud o'zligidan mahrum etilgan shoir" maqolalari talqini.
16. "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Yangilanish ehtiyoji" suhbatini bilan tanishish.
17. Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan maqolalar tahlili.
18. Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan maqolalar talqini.
19. A. Rasulovning "Iste'dod va e'tiqod" asarida O. Sharafiddinov xarakteri.
20. "So'z latofati" kitobida Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танкиди тарихи. – Т.: Тафаккур қаноти, 2012.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи (X-XIX асрлар). – Т.: Ўзбекистон, 1993.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамыз.-Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Миркосимова М. Ҳозирги адабий жараён. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДПУ, 2008.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т. Шарқ, 2004.
5. Шарафиддинов О. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
6. Козокбой Йўлдош. Ёник сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Т.: Академнашр, 2010.
8. Қахрамонов Қ. Адабий танкид: янгиланиш жараёни. –Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона, 2009.
9. Каюмов А. Академик Ойбек. – Т.: Ислон университети, 2003.
10. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000.
11. Хамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. –Т.: Шарқ, 2004.
12. Куронов Д. Истиклол дарди. –Т.: Янги аср авлоди, 2000.
13. Раҳимжонов Н. Мустиқиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Фан, 2007.
14. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Т.: Шарқ, 2008.
15. Ҳожнаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998.
16. Фитрат. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
17. Воҳидов Э. Шеър дунёси. – Т.: Шарқ, 2001.
18. Орипов А. Танланган асарлар. 4 томлик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 2001.
19. Аъзамов А. Аруз. – Т.: Фан, 2006.
20. Умиров Ҳ. Адабиёт қодалари. – Т.: Ўқитувчи, 2002.
21. Бобоев Т. Бобоева З. Бадий санъатлар. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
22. У. Норматов. Нафосат гурунглари. – Т.: Мумтоз сўз, 2011.
23. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Т.: Фан ва технология, 2006.
24. Ёқубов И. Бадий-естетик сўз сехри. – Т., 2011

### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)